



PEDAGOGIK AKMEOLOGIYA

xalqaro ilmiy-metodik jurnal

3(11)

2024



XALQ OG'ZAKI IJODI NAMUNALARINI O'QIB VA TINGLAB TUSHUNISH JARAYONIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Annotatsiya. Mazkur maqolada boshlang'ich sinflarda xalq og'zaki ijodi namunalarini o'qib va tinglab tushunish jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanishga doir fikr-mulohazalar, birinchi sinfdan to'rtinchi sinfgacha bo'lgan "Ona tili va o'qish savodxonligi" darsliklaridagi bazi ertaklar tahlili hamda ularning o'qitish usullari, darsliklarda keltirilgan ertaklar tasnifi borasida fikr-mulohazalar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: ertak, audio ertak, o'qib tushunish, tinglab tushunish, malaka, qiyin so'zlar, namunali o'qish, so'z boyligi, savodxonlik, matn.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПРОЦЕССЕ ЧТЕНИЯ И ПОНИМАНИЯ НА СЛУХ ОБРАЗЦОВ УСТНОГО НАРОДНОГО ТВОРЧЕСТВА

Аннотация: В данной статье даны комментарии по использованию цифровых технологий в процессе чтения и прослушивания образцов народного творчества в начальных классах, анализ некоторых сказок в учебниках «Родной язык и грамотность чтения» с первого по четвертый класс, представлены мнения о методах их преподавания и классификации сказок, представленных в учебниках.

Ключевые слова: сказка, аудиозапись, понимание прочитанного, понимание на слух, компетентность, сложные слова, образцовое чтение, словарный запас, грамотность, текст.

THE USE OF DIGITAL TECHNOLOGIES IN THE PROCESS OF READING AND LISTENING TO SAMPLES OF FOLK ORAL CREATIVITY

Annotation: This article provides comments on the use of digital technologies in the process of reading and listening to samples of folk art in primary grades, an analysis of some fairy tales in the textbooks "Mother tongue and reading literacy" from the first to the fourth grade, opinions are presented on the methods of teaching them and the classification of fairy tales presented in textbooks.

Key words: fairy tale, audio fairy tale, reading comprehension, listening, skill possession, difficult words, reading pattern, vocabulary, literacy, text.

Ta'lim va tarbiya berish tizimi juda murakkab va ijodiy jarayon hisoblanib, unda turli xildagi bilimlarni talab darajasida yetkazib berish va uni sinovdan o'tkazishning xalqaro me'yorlari mavjud. Bu xalqaro me'yorlar har tomonlama taraqqiy etgan davlatlar tomonidan e'tirof etilgan va shu bois ular amalga qo'llab kelinadi. Ta'kidlash joizki, ayni damda, bu xalqaro ularni Respublikamizdagi ta'lim jarayoniga joriy etish borasida amaliy ishlar olib borilmoqda. Bundan tashqari, o'quvchilarni ta'limdagi yutuqlarini baholash xalqaro dasturi (PISA), matni o'qish va tushunish darajasini aniqlovchi xalqaro tadqiqot (PIRLS) hamda Maktabda matematika va aniq fanlar sifatini tadqiq qiluvchi xalqaro monitoring (TIMSS) kabi bir qator xalqaro dasturlar mavjud bo'lib, ular rivojlangan davlatlardagi ta'lim sifatini yanada oshirishdagi mezon sifatida keng qo'llanilib kelinmoqda.

An'anaga ko'ra, 2021-yilda o'tkaziladigan PIRLS xalqaro baholash dasturida 70 ga yaqin rivojlangan davlatlar ishtirok etdi. Ular qatorida mamlakatimizdagi 4-sinf o'quvchilari ham ilk

230 marotaba bu xalqaro tadqiqot sinoviga ishtirok etdi. Bunday tadqiqotlar bundan oldin - 2001-, 2006-, 2011-, 2016-yillarda ham o'tkazilgan bo'lib, 2021-yilgi sinov tadbiri tadqiqotning beshinchi davriyligi hisoblanadi. Navbatdagi tadqiqot 2026-yilda o'tkaziladi. Har besh yilda o'tkaziladigan PIRLS dasturi 4-sinf o'quvchilarining o'qib tushunish ko'nikmasini xalqaro darajada baholaydi.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, mazkur xalqaro tadqiqot dasturi 4-sinf o'quvchilarining matematika va tabiiy fanlardan bilim darajasini baholaydigan TIMSS dasturini to'ldirishga yo'naltirilgan bo'lib, Boston kollejidagi TIMSS va PIRLS xalqaro markazi, IEA tashkilotining Gamburg va Amsterdam shaharlaridagi idoralari bilan yaqindan hamkorlikda boshqariladi.

Yuqoridagilarni hisobga olib, respublikamizda ta'lim sifatini jahon andozalariga mos ravishda ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi umumiy o'rta va o'rtamaksus ta'limi DTS va dasturining yangi nashrida o'quvchilarning yosh darajasiga qarab, ular ega bo'lishi kerak bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalari (A1, A1+, B1, B 1+... ko'rinishlarida) belgilanib, kompetensiyalarga talablari ham kiritilgan. Ona tili fani bo'yicha belgilangan kompetensiyalarida o'qib va tinglab tushunish, so'zlash, o'qish, yozish kabi talablar berilgan bo'lib, lisoniy malakani baholashdagi eng asosiy bo'g'inlardan biri bo'lgan matnni o'qib tushunish kompetensiyalar sirasida tilga olingan. Dasturda va yangi darsliklarda ham matnni o'qib tushunish bo'yicha topshiriqlar kiritilmoqda.

Xo'sh, o'qib tushunish deganda nimani nazarda tutamiz? Bu haqda ilmiy manbalarda nima deyilgan? Aslida bu matnni o'qish, uning ma'nosini tushunish va o'qiyotgan shaxs oldindan bilgan narsalar bilan bog'lab ang'ay olish qobiliyatidir. Matn tarkibidagi turli xildagi so'zlarning lug'aviy ma'nosini bilish, so'zlarning kontekstual ma'nosini bilish, matn mazmuniy qismlarining o'zaro mantiqiy bog'lanishini ang'ay olish, matn mazmunidan kerakli xulosa chiqara olish, matndagi asosiy – yo'naltiruvchi fikrini aniqlay olish, matn mazmuni bilan bog'liq berilgan savollarga to'g'ri javob bera olish, matnda ishlatilgan badiiy san'atlar yoki so'z birikmalarini tanib, ajratib olish va ohangini aniqlash, vaziyatning kayfiyatini (tasdiq, inkor, so'roq qilish, buyruq berish), muallifning maqsadi, niyati va nuqtai nazarini ang'ay olish qobiliyatlari o'qilgan matnni samarali tushunish uchun zarur bo'lgan ko'nikma va malakalar sirasiga kiradi. O'qib tushunish jarayonida matndagi turli chiziqlar majmuyini qabul qilamiz, ular grafema (Grafema (yunoncha "grafo" so'zidan): 1) yozma nutqdagi eng kichik yozuv birligi; 2) so'z yoki gapdagi o'rni, uslub va hokazolarga ko'ra turli variantlarda qo'llanadigan yozuv birligi) deb ataladi. U matndagi mavjud so'zlar bilan solishtiriladi va so'zlarning tashqi shaklidan uning mazmun-mohiyati anglanadi va idrok qilinadi. Ya'ni, mazkur tasvirga bog'langan ma'no faollashadi. Yozma matndagi so'zni turli belgilar tizimi – grafemalar yig'indisi sifatida qabul qilamiz va uni matn mazmunining bir qismi sifatida idrok qila boshlaymiz. Matnni o'qib tushunish jarayoni pedagogik, psixologik, jismoniy hamda fiziologik jarayon hisoblanadi. Uni pedagogik jarayoniga o'qituvchi tomonidan matnni ovoz chiqarib o'qish, mazmunini turli yo'llar vositasida tushuntirish, matn tarkibidagi ma'nosi qiyin so'zlarni tushuntirish, matn muallifi asosiy maqsadini anglashni o'rgatish, matnni qismlarga bo'lish, matn mazmunidan kelib chiqib savollar tuzish malakasini hosil qilish va hokazolalar kiradi. Psixologik jihatiga esa diqqatni yig'gan holda o'rganilayotgan narsaga qarash hamda tikilish va tushunish nazarda tutiladi. Jismoniy jihatiga esa boshqa barcha harakatlarni to'xtatgan holda ko'zni faqat matndagi harf, bo'g'in yo so'zga qaratish tushunilishi lozim. Oxirgi fiziologik jihatiga esa o'rgatilayotgan harf yo so'zni takrorlay olish, o'qiy olish qobiliyatining mavjud yoki mavjud emasligi hisobga olingan holda ish tashkillashtiriladi. Shuning uchun ham o'qib tushunish murakkab nutqiy psixofiziologik faoliyat hisoblanadi. Bu jarayon haqida ko'plab xorij va o'zbek olimlari ilmiy ishlar qilganlar, tajribalar o'tkazganlar va ularning tahlillari asosida natijalarni taqdim qilganlar. "Hammada ham matnni o'qib tushunish bosqichlar bir xil amalga oshavermaydi. Shuning uchun ham muayyan matnni bir xil o'qib chiqqan o'quvchilar tushunishining har xil bo'lishini guvohi bo'lamiz. Bu uning fiziologik va psixologik jihatlariga bog'liq bo'ladi, ya'ni qabul qilish qobiliyati yoki ruhiy-psixik holatiga, yoki jismoniy holatlariga bog'liq bo'lishi mumkin. Shuningdek, matnni o'qib tushunishga bir nechta omillar ta'sir etishi mumkin" (1.4).

Respublikamiz mustaqillikka erishganimizdan keyingi yillarda mamlakatimizda ona tilini o'qitishda nutqiy kompetensiyani rivojlantirishga katta e'tibor qaratildi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida nutqiy kompetensiyani rivojlantirish, ularning o'qish hamda tinglab tushunish malakalarini shakllantirishning nazariy va metodik asoslarini ishlab chiqish hamda bu jarayonda raqamli texnologiyalarni keng qo'llash borasida muayyan ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, taniqli olim R.G. Safarovning [2] doktorlik dissertatsiyasida nutqiy ko'nikma, o'qish ko'nikmalari va malakalarni baholash mezonlari hamda bu jarayonda axborot texnologiyalaridan foydalanish yuzasidan o'rinli tavsiyalar berilgan.

Ona tili fani bo'yicha O'zbekiston Respublikasi uzluksiz ta'lim milliy o'quv dasturlarida ona tili o'qitishning asosiy maqsadi quyidagicha belgilangan: "O'quvchilarda o'qish va mehnat jarayonida o'z fikrini og'zaki va yozma tarzda to'g'ri va ravon bayon qiladigan, jamoat joylarida turli nutqiy vaziyatlarda mustaqil ravishda fikrini ifoda etadigan, og'zaki va yozma savodxonlik malakalariga ega bo'lgan, kitobxonlik madaniyati shakllangan, mustaqil va ijodiy fikrlay oladigan, o'zгалar fikrini anglaydigan - muloqot va nutq madaniyati rivojlangan shaxsni kamol toptirish" [3: 204].

Yosh avlodning bilish faoliyatini shakllantirish va uzluksiz rivojlantirib borishning maqsadi, vazifalari, mazmuni, vositalari, metodlarini hamda ushbu jarayonda raqamli texnologiyalarni keng va samarali qo'llab borishni ilmiy pedagog asoslarga tayangan holda belgilab berishni taqozo qilmoqda. Ushbu muommoning yechilishi o'quvchilarni ijodiy fikrlashi, ularda bilimni egallash faolligi, mustaqil bilish faoliyatini shakllantirish, axborot texnologiyalar bilan yaxshi qurollanish masalalariga bog'liq. Bunda kichik yoshdagi maktab o'quvchilari bilish faoliyatini shakllantirish dolzarb ahamiyat kasb etishi yaqqol namoyon bo'lmoqda. Bugungi o'qituvchi - ta'lim sohasini tubdan isloh qilish bilan birga o'quvchilar qalbi va ongida xalq og'zaki ijodiga asosida tarbiyalash, boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'qib va tinglab tushunish malakasini shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Boshlang'ich ta'limda o'qish va o'qitish muammolari, uni nazariy va amaliy jihatdan o'rganish doimo dolzarb bo'lib kelgan. Shuning uchun ham Q. Abdullayeva, Abdulkarimov, R. Safarova B. Adizov, R. Movlonova, R. Ergashev, M. Haydarov, T. Hasanov, O. Xasanboyeva, B. Raximov, N. Valiyeva, N. Jumayeva kabilarning ilmiy asarlarida boshlang'ich ta'lim mazmuni, boshlang'ich sinf o'quvchilarni mehnat, axloqiy tarbiyalash, ongli intizom, do'stlik kabilar nazariy jihatdan yoritilgan. Bugungi kunda boshlang'ich sinflarda badiiy asarlar o'qitish asosida o'qib va tinglab tushunish malakalarini raqamli texnologiyalar vositasida takomillashtirish metodikasini yaratish dolzarb muammo bo'lmoqda.

Xalq og'zaki ijodining faol janrlaridan bo'lmish ertaklarni o'qish darslarida asosiy tarbiyaviy vazifa ularni barkamol inson ruhida shakllantirishga qaratiladi. Masalan, Ona tili va o'qish savodxonligi (1-qism [Matn]: darslik 2-sinf uchun) darsligida "Chumolining jasorati" ertagi [6:7] berilgan. Unda vatanparvarlik namunasi juda sodda va ishonarli tarzda talqin etilgan. Shuning uchun o'quvchilarda birinchi sinfdan boshlab bu mavzudagi ertaklar o'qitiladi. "Rostgo'y bola" ertagini o'qish darsida rostgo'ylikning bebaho xislat ekanligiga alohida urg'u beriladi. Ertakda bir buyuk podshohning farzandsizlikdan azob chekkanligi va oxir-oqibat farzand olib saqlamoqchigi hikoya qilinadi. Podsho yurtning barcha bolalariga gul urug'i tarqatadi va kimning guli eng chiroyli bo'lsa o'shani farzand qilmoqchiligini aytadi. Oradan birmuncha vaqt o'tgach o'stirilgan gullarni ko'rish uchun shahar aylanadi. U ko'p bolalar va ular chiroyli qilib o'stirgan gullar yonidan beparvo o'taveradi. Ammo ko'cha boshida gulsiz tuvak tutgan bolani ko'rib uni farzand qilib oladi. Chunki podsho tarqatgan gul urug'i qaynatilgan edi. Ertak mazmunidan ham ko'rinadiki, rostgo'ylik insonda eng qadrlanadigan fazilatlardan biri ekan. Rostgo'y insongina buyuk martabalarga erishadi. Buni o'z rostgo'yligi bilan podshoga farzand bo'lgan bola misolida ham ko'rish mumkin. O'qituvchi ushbu ertakni o'qish darsida o'quvchilarga quyidagi savollarni beradi:

1. Rostgo'ylik nima?
2. Siz yolg'on gapirib turasizmi? Nima uchun?
3. Sizni aldashganmi? Bu holatda nimalarni his qilgansiz?

O'quvchilar ushbu so'roqlarga javob berish davomida o'zlarining rostgo'ylik haqidagi tushunchalarini qay darajada kengligini bilib oladilar. Ularda o'z fikrlarini mustaqil bayon etish ko'nikmalari shakllantiriladi. Shuningdek, o'qituvchi ertak mazmuniga mos maqollarni aytishni o'quvchilardan so'raydi. Ular "Boshingga qilich kelsa ham rost so'zla", "Shirin yolg'ondan achchiq haqiqat afzal", "To'g'ri gapning to'qmog'i bor" kabi maqollarni aytadilar va o'qituvchi yordamiad bu maqollarning mazmunini bilib oladilar. Ertakni to'qish jarayonida o'qituvchi rostgo'ylik insonni buyuk martabalarga olib chiqishini tushuntiradi. Agar rostgo'y bola ham podshoga farzand bo'lishni xohlab boshqa urug'dan chiroyli gul undirganda edi, u ham boshqalarga o'xshab podshoning nazariga tushmagan va unga farzand bo'lmagan bo'lardi. Undagi rostgo'ylik podshoh tomonidan ulkan qadrlanib, uni o'ziga farzandlikka qabul qilishiga sababchi bo'ldi. Mana shu tarbiyaviy jihatlarga diqqat qilish o'quvchilarni rostgo'y bo'lishga, yolg'onchilikdan qochishga undaydi. Boshlang'ich sinf "O'qish kitobi" darsliklarida berilgan har qanday ertak zamirida o'quvchilarni ma'naviy yetuk inson ruhida tarbiyalash g'oyasi yotadi. O'qituvchi esa ana shu g'oyani ilg'agan tarzda o'z darslarini uyushtirsa va o'tkazsa o'z pedagoglik vazifasini ado etgan bo'ladi. Zero, ma'naviyati yuksak, har tomonlama rivojlangan komil shaxsgina yurtimiz kelajagini buyuk qila oladi.

Maqol xalqning ko'p asr mobaynida ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotda to'plagan tajribalari, kuzatishlari asosida yuzaga kelgan ixcham chuqur mazmunga ega bo'lgan og'zaki ijod janrlaridan biridir. Maqol o'z tabiatiga ko'ra xalqaro janr hisoblanadi. Dunyoda o'z maqollariga ega bo'lmagan xalqning o'zi yo'q. Chunki har bir xalq hayotiy tajribalarini maqollar shaklida avlodlarga qoldiradi. Shuning uchun ham turli xalqlar og'zaki ijodida mazmun va shakl jihatidan bir-biriga yaqin hamda hamohang maqollar o'xshashliklar, umumiyliklar mavjud. Maqol qator xususiyatlari bilan xalq og'zaki ijodining boshqa janrlaridan keskin farqlanib turadi. Maqollarda ibratli fikr aytiladi.

Maqollar xalq hayotini, uning o'tmishdagi iqtisodiy, siyosiy va madaniy turmush darajasini o'rganishda nodir manbalik vazifasini o'taydi. Shuning uchun ham genial rus yozuvchisi L.N.Tolstoy "Har bir maqolda men shu maqolni yaratgan xalq siymosini ko'raman" deb yozganida to'la haqli edi. Boshlang'ich sinflarda maqollarni o'rganish orqali o'quvchilar og'zaki nutqini o'stirish bilan bir qatorda ularga o'qib va tinglab tushunish malakasini shakllantirish orqali o'quvchilar ongiga turli insoniy fazilatlarini singdiriladi. Bunda quyidagilarga e'tibor beriladi: Birinchidan, maqollar tajribada sinalgan fikrni tasdiqlaydi. Masalan: "Hunarli kishi xor bo'lmas", "Hunar bo'lsa qo'lingda, non topilar yo'lingda", «Yolg'iz otning changi chiqmas, Changi chiqsa ham dong'i chiqmas» maqollarida hunari orqasidan kishining yaxshi turmush kechirishi hamda kishilar orasidagi ahillikning ahamiyati ifodalangan; ikkinchidan, tabiatda sodir bo'lgan voqea va hodisalarni jamiyat hayotiga (ko'chma ma'noda) boshlaydi. Inson uchun uning zarurligi ochiladi. Masalan: Bog'ni eksang bog' bo'ladi, Botmon eksang yog' bo'ladi. Boqimsiz bog' tog' bo'ladi. Yurak-bag'ring dog' bo'ladi; uchunchidan, maqol mazmunida narsalarning o'ziga xos xususiyati, mohiyati ochiladi va bu inson hayotiga ham bog'liq holda, ma'no jihatidan tarbiya mazmunini beradi. Masalan: «Do'stsiz boshim-tuzsiz oshim», «Bulbul chamanni sevar, odam Vatanni»; to'rtinchidan, maqollardagi muhokama va tafsilot inson, jamiyat va ayrim predmetlarning mohiyatini eslatish bilan birga, o'quvchilar fikrini uyg'unlashtiradi, tarbiyaviy ta'sir ko'rsatadi. Maqollarni anglatgan ma'nolarini ochishda yil fasllari, har-xil mavsumlar va hunarlarning nomlarini ham hisobga olish foydalidir. Ular o'quvchilarning lug'at boyliklarini oshiradi, so'zlarni ko'plab o'zlashtirishlariga olib keladi. O'qituvchi maqol mazmunini so'zlashdan oldin, uni ifodali o'qib beradi. Shundan so'ng o'qish texnikasini yaxshi egallagan o'quvchilarning ikki-uchtasi maqolni o'qitib, ularni tinglab tushunish malakasi rivojlantiriladi. Ayrim o'quvchilardan maqol mazmunini qanday tushunilganligi savollar orqali so'raladi. O'qituvchi maqol yozilgan kartonni doskaga iladi va o'qish texnikasini yaxshi egallamagan 2-3 o'quvchiga ifodali o'qitadi. O'quvchilarning ifodali o'qishdagi ayrim nuqsonlar izohlanadi, so'ngra maqollar mazmunan tahlil etiladi. Maqollarning audio variantlari o'qib eshittiriladi. Masalan: o'qituvchi «Yaxshidan bog' qoladi, Yomondan dog'» maqolini o'qishda quyidagilarga amal qiladi:

a) birinchi misradagi "yaxshidan" so'zini ikkinchi misradagi "yomondan" so'zidan ohang jihatidan farqli ravishda o'qiladi.

b) o'qituvchi maqolni o'qish jarayonida, birinchi misradan so'ng qisqa pauza qiladi.

Ifodali o'qish jarayonida yaxshi, yomon, bog', dog' so'zlarini doskaga yozib boradi. Shu talablarga asosan, o'rganilgan maqol o'quvchilarda ifodali o'qish uchun zamin tayyorlaydi. Shuningdek, yaxshi insonlar, ezgu fazilatlar egasi doimo xalq orasida ehtirom bilan tilga olinishi, u keyingi avlodlarga ham o'z yaxshi fazilatlarini bilan o'rnatib bo'lishi tushuntiriladi. Chunki bog' hamisha yashnab turadigan, o'z ne'matlari bilan barchani xushnud qiladigan maskandir. Yomonlik ham unutilmaydi, binobarin u o'zidan og'riqli iz qoldiradi. Bu og'riq inson qalbida dog' misoli bo'ladi. Shuning uchun har bir inson faqat yaxshilik qilishga, ezgu ishlarni amalga oshirishga harakat qilishi lozimligi haqida o'quvchilar bilan suhbat olib boriladi. Yomon ishlardan chekinish zarurligi uqtiriladi. O'qituvchi o'quvchilarga: "Sizni qanday eslashlarini istaysiz? Buning uchun nimalar qilishingiz lozim?" kabi savollar bilan murojaat qilinadi. O'quvchilar fikri diqqat bilan tinglanib, yaxshi fazilatlar misollar bilan ular ongiga singdirib boriladi. Shu o'rinda o'quvchilar orasidan ikki o'quvchi doskaga chiqariladi va ulardan biriga yaxshi fazilatlarini, ikkinchisiga yomon fazilatlarini doskaga yozish topshiriladi. Bunda quyidagi ustun yozilishi mumkin: Yaxshi fazilatlar - yomon xususiyatlar, rostgo'ylik - yolg'onchilik, mehnatsevarlik dangasalik, kamtarlik - manmanlik, xushmuomalalik - qo'pollik, qo'rslik... Keyin o'qituvchi har bir yozilgan so'zga o'quvchilarning o'zlari biladigan, yod olgan maqollarini aytishni va shu orqali ularning anglash qobiliyatlarini sinab ko'radi. Masalan; Rostgo'ylik- "Boshingga qilich kelsa ham, rost so'zla" yoki "Kamtarga kamol-manmanga zavol" kabi maqollar aytildi va o'quvchilarning tinglab tushunish malakalari tekshirib ko'riladi. Ko'rinadiki, boshlang'ich sinf o'quvchilarida xalq og'zaki ijodi bilan tanishtirish jarayonida o'qib va tinglab tushunish jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanish ta'lim samaradorligini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ismailov A. v.b., Xalqaro tadqiqotlarda o'quvchilarning o'qish savodxonligini baholash. – Toshkent, «Sharq», 2019, 92 b.
2. Safarova R. G'. Milliy tiklanish sharoitida O'zbekiston maktablarida Ona tili ta'limi nazariyasi va amaliyoti. ped. fan. dok. ... dis. –Toshkent, 1998. – 236 b.
3. Ona tili fani bo'yicha O'zbekiston Respublikasi uzluksiz ta'lim milliy o'quv dasturlari. –Toshkent, 2021. -261 b.
4. Ona tili va o'qish savodxonligi 1-qism [Matn]: 1-sinf uchun darslik / I. Azimova [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2021. – 104 b.
5. Ona tili va o'qish savodxonligi 2-qism [Matn]: 1-sinf uchun darslik / I. Azimova [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2021. – 104 b.
6. Ona tili va o'qish savodxonligi. 1-qism [Matn]: darslik 2-sinf uchun / K. Mavlonova [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2021. – 120 b.
7. Qayimov, L. (2024). FORMATION OF READING SKILLS IN JUNIOR SCHOOL CHILDREN. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz)*, 46(46).
8. Mirzo o'g'li, Q. L. (2023). BOSHLANG'ICH SINFLARDA RASMGGA QARAB INSHO YOZISH YO'LLARI. *PEDAGOGS jurnali*, 1(1), 182-182.

6	Xudoymurodova Dilafuz. Akmeologik yondashuv asosida bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari.....	226
	Qayimov Laziz Mirzo o'g'li. Xalq og'zaki ijodi namunalarini o'qib va tinglab tushunish jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanish.....	229
	Djo'rayeva Dilfuza Nuriddin qizi, Nasimova Nasiba Qurbon qizi. Nutqida kamchiligi bo'lgan bolalarda mayda motorika ko'nikmalarini shakllantirish orqali tayanch kompetensiyalarining rivojlanishi.....	234
	Одилова Наргиза Акрамовна. Методика развития творческого мышления учащихся начальных классов на естественнонаучной основе.....	238
	Рахимова Махлиё Акрамовна. Важность развития экологического образования и мышления в сознании молодого поколения.....	241
	Ойбек Ортиқов. Yoshlar tarbiyasi davr talabidir.....	245
	Исмаилов Шухрат Убайдович. Ёшларда ҳуқуқий маданиятни шакллантириш –ижтимоий фаолликни ривожлантирувчи омил сифатида.....	249
	Nazarov Farhod Allaberdiyevich. O'zbek xalq qo'shiqlarini o'rgatish dolzarb metodik muammo sifatida (Buxoro bolalar folklyori misolida).....	258
	Farmonov O'tkir Alimovich. Oliy ta'lim muassasalarining sport faoliyati basketbol yo'nalishida ta'lim olayotgan talabalarining jismoniy rivojlanishi va o'ziga xos imkoniyatlarini nazorat qilish tizimi takomillashtirish.....	262

19.00.00 – PSIXOLOGIYA FANLARI.....269

	Myxamedova Dilbar Gafurdjanovna, Sayitova Nargiza Xikmatillo qizi. O'smirlarda depressiyaning namoyon bo'lishining psixologik xususiyatlari.....	269
	Kudratov Akmaljon Ibodillayevich. Ma'naviy ehtiyojlarni shakllantirishda motivlar ta'sirini aniqlashning eksperimental tahlili.....	274
	Ziyavitdinova Gulnora Ziyautdinovna, Ibroximov Farruxbek Farhod o'g'li. Talabalarining o'quv faoliyatiga emotsional intellektning ta'siri.....	278
	Kuvandikova Gulnora Gulamovna. Talabalarining ilmiy-tadqiqot faoliyati iste'dodni rivojlantirish omili sifatida.....	283
	Latipova Umida Yusufboyevna. Talabalar ijodiy faollik motivatsiyasiga ta'sir qiluvchi omillarning psixologik ahamiyati.....	287
	Ziyavitdinova Gulnora Ziyautdinovna, Ergasheva Gullolaxon Nosirjon qizi. Psixologiyada emotsional kreativlikning nazariy va amaliy o'rganilishi.....	292
	Husenov Nodir Nuriddinovich. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida ulotirish texnikasini o'rgatish metodikasi.....	297
	Ortiqov Sirojiddin Sa'dullayevich. Huquqiy ong va bilimlar shakllantirishning psixologik xususiyatlari.....	302
	Ziyavitdinova Gulnora Ziyautdinovna, Mohira Ilg'or qizi Ilxomova. Kichik maktab yoshidagi bolalarda qo'rquvning emotsional xolatlariga ta'siri.....	307
	Usmanaliyeva Gavhar Akbarali qizi. Bilingvizm va multilingualizm.....	311
	Toshnazarova Uzukoy Azizberdi qizi. Muloqot madaniyatini rivojlantirish psixologik tadqiqot obyekti sifatida.....	315
	Jurayeva Halima Alisher qizi. Shaxs tashabbuskorligini aniqlash metodlari taxlili.....	319
	Salomova Guli Shodimurodovna. Madaniyatlararo munosabatlarning tanqidiy tafakkurdagi rolini o'rganish.....	323
	Каланходжаева К.Б. Роль ведущего полушария в осуществлении психических функций и обучении студентов.....	328
	Бурунова Камола Бахтиёровна. Психология эмоциональных отношений родителей и детей в современных семьях.....	332
	Tajibayev Shohruh Maqsudovich. Maktab o'qituvchilarida psixologik stress namoyon bo'lishining obyektiv va subyektiv sabablari.....	336
	Хазиева Эльвира Дияверовна. Мобильные приложения и современная молодежь.....	340